


**TANTANALAR DAVOM ETMOQDA**

Aytish lozimki, tumanimiz markazida tashkil etilgan bayram tadbirining o'tkazilishida tuman maktabgacha ta'lim bo'limi mutasaddilarining ham ulushi bor.

Tuman maktabgacha ta'lim bo'limi uslubchisi Xurshed Samandarovning bizga bergan ma'lumotiga ko'ra, o'tkazilgan tadbirda 3-hamda 10-sonli MTT-ning tarbiyalanuvchilari o'z chiqishlari bilan barcha ishtirokchi-mehmonlarni tabrikladilar.

Tadbir davomida tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev 6-sonli MTT sobiq mudirasi Dilorom Odilovaga «Mu'tabar ayol» ko'krak nishoni hamda tuman MTB mudiri Gulnoza Usmonovaga faxriy yorliq va esdalik sovg'alar taqdim etdi.

Tadbirda jami 75-nafar MTT tarbiyachilari qatnashib ularga xam esdalik sovg'alari taqdim etildi.

Barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 8-mart Xalkaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar davom etmoqda.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**
2022-03-08 14:37:21